Advokat maqomiga ega bo‘lish, uni to‘xtatib turish va tiklash hamda advokat maqomini tugatishning ilmiy-nazariy asoslari

Abduxalimova Sofiya Normurod qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti “Advokatlik faoliyati” yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada advokat maqomiga ega bo‘lish, uni to‘xtatib turish, tiklash va tugatishning ilmiy-nazariy hamda huquqiy asoslari tahlil qilingan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida advokatlik maqomini olish shartlari, advokatning kasbiy faoliyatini vaqtincha to‘xtatib turish asoslari, maqomni tiklash tartibi va advokatlik faoliyatini tugatishning huquqiy mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, advokat maqomining huquqiy tabiati, advokatura mustaqilligini ta’minlash, advokatlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda mazkur sohadagi qonunchilikni takomillashtirish masalalari ilmiy jihatdan o‘rganilgan. Tadqiqot natijasida advokat maqomiga oid huquqiy munosabatlarni yanada takomillashtirishga qaratilgan nazariy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: advokat, advokatura, advokat maqomi, litsenziya, advokatlik faoliyati, malaka komissiyasi, advokat mustaqilligi, huquqiy maqom, maqomni to‘xtatib turish, maqomni tiklash, maqomni tugatish, yuridik yordam.

Scientific and theoretical foundations of obtaining, suspending, and restoring advocate status, as well as the termination of advocate status

Abdukhalimova Sofiya Normurod kizi

Tashkent State University of Law Master's student in the field of "Advocacy"

Abstract. This article analyzes the scientific-theoretical and legal foundations of acquiring, suspending, restoring, and terminating the status of an advocate. In particular, the legislation of the Republic of Uzbekistan outlines the conditions for obtaining the status of an advocate, the grounds for the temporary suspension of an advocate's professional activity, the procedure for restoring the status, and the legal mechanisms for terminating advocacy. The legal nature of the status of an advocate, ensuring the independence of the legal profession, protecting the rights and legitimate interests of lawyers, and improving legislation in this field have also been scientifically studied. As a result of the study, theoretical conclusions and proposals aimed at further improving legal relations related to the status of an advocate were developed.

Keywords: advocate, legal profession, advocate status, license, legal practice, qualification commission, advocate independence, legal status, suspension of status, restoration of status, termination of status, legal assistance.

Научно-теоретические основы приобретения, приостановления и восстановления статуса адвоката, а также прекращения статуса Адвоката

Абдухалимова София Нормурод кизи

Ташкентский государственный юридический университет

Магистрант направления "Адвокатура"

Аннотация. В данной статье анализируются научно-теоретические и правовые основы приобретения, приостановления, восстановления и прекращения статуса адвоката. В частности, освещены условия получения статуса адвоката в законодательстве Республики Узбекистан, основания временного

приостановления профессиональной деятельности адвоката, порядок восстановления статуса и правовые механизмы прекращения адвокатской деятельности. Также научно изучены вопросы правовой природы статуса адвоката, обеспечения независимости адвокатуры, защиты прав и законных интересов адвокатов, а также совершенствования законодательства в данной сфере. В результате исследования были разработаны теоретические выводы и предложения, направленные на дальнейшее совершенствование правоотношений, связанных со статусом адвоката.

Ключевые слова: адвокат, адвокатура, статус адвоката, лицензия, адвокатская деятельность, квалификационная комиссия, независимость адвоката, правовой статус, приостановление статуса, восстановление статуса, прекращение статуса, юридическая помощь.

Kirish

Mamlakatimizda sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasi o`laroq, advokatura institutini rivojlantirish uchun ham muhim qadamlar tashlandi. Shuningdek, ushbu sohaning rivoji uchun sharoitlar yaratish, advokatlik faoliyati bilan shug`ullanuvchilarni qo`llab-quvvatlash uchun bir nechta normativhuquqiy hujjatlar ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq qilindi. Jumladan,

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi **“Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi PF-5441-son Farmonida advokatura tizimini tubdan takomillashtirish, professional yuridik yordam sifatini va advokat kasbining nufuzini oshirish, shuningdek, sud ishini yuritishda tenglik va tortishuv prinsiplarini to‘liq ro‘yobga chiqarish maqsadida 2018-yil 1-iyuldan boshlab, advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyani olish uchun advokatlik

tuzilmasida majburiy **stajirovka o‘tash muddati olti oydan uch oyga qisqartirildi**, bunda davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmati xodimlari va sudya, tergovchi yoki prokuror lavozimida kamida uch yil faoliyat yuritgan shaxslar majburiy stajirovkadan ozod etildi. Shuningdek, advokat maqomini olish bo‘yicha malaka imtihonini takroran topshirish muddati bir yildan olti oygacha qisqartirildi.

Bundan tashqari, O`zbekiston Respublikasi 2023-yil 12sentabrdan kuchga kirgan “**O‘zbekiston — 2030 strategiyasi** to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmonining 88-bandida “Advokatura institutining salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, malakali huquqiy yordam ko‘rsatish tizimini rivojlantirish” vazifasi qo`yilgan. Unga ko`ra, advokatura institutini o‘z-o‘zini boshqarish tizimiga o‘tkazish hamda uning davlat organlari va boshqa tuzilmalardan chinakam mustaqilligini ta’minlash, advokatlar malakasini oshirishning zamonaviy va xalqaro standartlarga mos keluvchi va muqobillik tamoyiliga asoslangan tizimini joriy etish, shuningdek, advokatlar sonini kamida **2000** nafarga ko‘paytirish, fuqarolik, ma’muriy va iqtisodiy ishlar bo‘yicha advokatlar hamda sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat organlari o‘rtasida elektron hujjatlar almashinuvi darajasini **kamida 50 foizga yetkazish**[1] kabi vazifalar belgilangan. Hozirgi kunda mazkur vazifalarni bajarish bo`yicha sa’y-harakatlar amalga oshirilmoqda.

Advokat maqomi tushunchasiga ta’rif berishdan oldin, dastlab maqom tushunchasining izohiga nazar tashlasak. **Maqom** – martaba, mavqe degan ma’nolarda ishlatiladi. Demak, advokat maqomi bu advokat mavqeyi, martabasidir.[2] Rossiya Federatsiyasi “Advokatlik va notariat akademiyasi “Advokatura” kafedrasi aspiranti A.D.Boykova "Advokat maqomi" huquqiy tushunchasi birinchi marta advokatura to'g'risidagi qonun hujjatlarida 2002-yil 31-maydagi 63-FZ-sonli "Rossiya Federatsiyasida advokatlik faoliyati va advokatura to'g'risida"gi Federal qonunning qabul qilinishi bilan paydo bo'lganligini bayon qiladi. Qonunning 2-moddasida ta'kidlanganidek, "Advokat - bu Federal qonunda belgilangan tartibda advokat maqomini olgan va advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lgan shaxs". Bundan tashqari A.D.Boykova

“Advokatning maqomi - shaxsning amaldagi qonunchilikda belgilangan va kafolatlangan, ushbu shaxsning yuridik faoliyatni amalga oshirishi uchun zarur va yetarli bo'lgan huquq va majburiyatlari mavjudligi bilan tavsiflangan huquqiy holati" deb ta'riflanishi mumkinligi haqidagi fikrlarini yozib o`tgan.[3]

Bundan tashqari, M.B.Smolenskiy muallifligida yozilgan “Rossiyada advokatlik faoliyati va advokatura kursi” darsligida “advokatning maqomi-uning jamiyatdagi huquqiy mavqei (holati), bu advokat maqomiga da'vogarga qo'yiladigan talablar, advokat maqomini olish tartibi, advokatning vakolatlari, shuningdek advokatning

[1] “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son.

[2] Izoh.uz tartib- izoh.uz/word/maqom

[3] Сущность и правовое содержание статуса адвоката. А.Д. БОЙКОВ

daxlsizligi mustaqilligining kafolatlari bilan belgilanadigan faoliyatdir”[4] deya fikr bildirgan.

Yuqorida olimlar tomonidan keltirilgan fikrlarni jamlagan holda shunday deyishimiz mumkinki, advokat maqomi – advokatlik faoliyati bilan shug`ullanish uchun qonunchilikda belgilangan talablarga mos keladigan, malakali huquqiy yordam ko`rsata oladigan shaxsning mavqeyi yoxud martabasi tushuniladi. Albatta, ushbu maqomni olgan shaxs unga munosib xulq-atvorga, advokatlik kasbiga vijdonan yondashadigan va huquq va manfaatlarni himoya qilshda fidoyi bo`lishlari kerak.

Advokat maqomini olish uchun talablar mavjud bo`lib, bunday talablar milliy qonunchiligimizda o`z aksini topgan. Xususan, advokatura va advokatlik faoliyatini tartibga soluvchi O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrda qabul qilingan **“Advokatura to‘g‘risidagi” 349-I-sonli Qonuni** hisoblanadi. Mazkur qonunning 3- va

3[1]-moddalarida advokatlik maqomiga ega bo`lish uchun qo`yilgan talablar belgilangan. Shuningdek, 1998-yil 25-dekabrda **“Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to`g`risida”gi 721-I-son Qonuni** ham mavjud. Belgilangan tartibda advokat maqomini olganda turli sabab va asoslarga ko`ra, advokat maqomi to`xtatib turilishi, advokatlik faoliyati tugatilishi va hokazo holatlar bo`lishi mumkin.

Biz tahlil qilishimiz kerak bo`lgan masala esa, advokat maqomini to`xtatib turish, qayta tiklash asoslari va tartibi hisoblanadi. Xo`sh, advokat maqomini to`xtatib turish deganda nima tushuniladi? Toshkent daavlat yuridik universiteti o`qituvchisi yuridik fanlar bo`yicha falsafa doktori (PhD) U.A.Zokirova tomonidan chiqarilgan o`quv qo`llanmasida “**Advokat maqomini to`xtatib turish** – bu advokatni advokatlik vazifasini bajarish va advokatlar uchun nazarda tutilgan huquqlardan foydalanish imkoniyatidan vaqtincha mahrum qilishdir.”[5] deya tushuntiradi. O`zbekiton Respublikasining “Advokatura to`g`risida”gi 349-I-sonli (keyingi o`rinlarda “Advokatura to`g`risida” gi qonuni deb yuritiladi) qonunining 13[1]-moddasi “Advokat maqomini to`xtatib turish” deya nomlanib, quyidagi asoslarni belgilaydi:

- advokat advokatlik faoliyati bilan birga olib borib bo‘lmaydigan doimiy lavozimga saylanganda yoki tayinlanganda — ish davriga. Ya’ni, mazkur qonunning 3-moddasi uchinchi qismida belgilangan advokatlik faoliyati bilan birga olib borishi mumkin bo`lgan faoliyatdan tashqari bo`lgan doimiy lavozimni egallaganida, uning

[4] Правовой статус адвоката (на примере России и Японии): сравнительно-правовое исследование». Выпускная квалификационная работа (Магистерская диссертация). Гришина Алена Владимировна

[5] Ўзбекистон Республикасида адвокат мақоми. ўқув қўлланма. ТДЮУ. Тошкент-2017. У.А.Закирова.https://unilibrary.uz/literature/251329

o`sha lavozimda bo`lib turgan davriga o`sha shaxsning advokat maqomi to`xtatib turiladi.

- ta’lim muassasalariga, shu jumladan kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kurslariga o‘qishga kirganda — o‘qish davriga, biroq ko‘pi bilan uch yilga. Bu holatda, advokatning o`qishga kirishi bilan bog`liq holatda ko`pi bilan uch yil muddatga advokat maqomi to`xtatib turiladi.

- homiladorlik va tug‘ish, uch yoshgacha bo‘lgan bolani parvarish qilish bo‘yicha ta’tillar berilganda — ta’til vaqtiga. O`zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 404-moddasiga asosan, ayolga tug‘ruqqacha yetmish kalendar kun hamda tug‘ruqdan keyin ellik olti kalendar kun (tug‘ish qiyin kechgan yoxud ikki yoki undan ortiq bola tug‘ilgan taqdirda yetmish kalendar kun) homiladorlik va tug‘ish ta’tili beriladi. Jami 126 yoki 140 kun ta’til berilib, shu davr mobaynida advokat maqomi to`xtatib turiladi. Ushbu kodeksing 405-moddasida belgilanadiki, homiladorlik va tug‘ish ta’tili tugaganidan keyin, ayolning xohishiga ko‘ra, unga bolasi ikki yoshga to‘lguniga qadar bolani parvarishlash ta’tili beriladi. Bola ikki yoshgacha to`lguncha bo`lgan vaqt davomida advokat maqomi to`xtatib turiladi.

- advokat yoki uning yaqin qarindoshi og‘ir kasalligi sababli vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik tufayli tibbiy xulosa taqdim etilganda — sog‘ayguncha, biroq ko‘pi bilan bir yilga.

- advokat qonunchilikda belgilangan tartibda bedarak yo‘qolgan deb topilganda

— bedarak yo‘qolgan deb topish haqidagi qaror sud tomonidan bekor qilinguniga qadar bo‘lgan davrga.

- advokat harbiy xizmatga chaqirilganda — harbiy xizmatni o‘tash davriga.

- sud tomonidan advokatga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash to‘g‘risida qaror qabul qilinganda, agar sudning mazkur qarori ushbu Qonunning 16-moddasiga muvofiq litsenziyaning amal qilishini tugatish uchun asos bo‘lmasa, — tibbiy

yo‘sindagi majburlov choralari sud tomonidan bekor qilinguniga qadar yoki o‘zgartirilguniga qadar bo‘lgan davrga.

- advokatlik litsenziyasining to`xtatib turilganligi (“Advokatura to`g`isida”gi qonunning 15-moddasi tartibida) - litsenziyaning amal qilishi to‘xtatib turilgan davrga.

• advokatlik tuzilmasi tugatilganda yoki advokat undan chiqqanida — advokat tomonidan uch oydan oshmaydigan muddatda amalga oshiriladigan boshqa advokatlik tuzilmasi tashkil etilguniga qadar yoxud mavjud advokatlik tuzilmalaridan biriga kirguniga qadar bo‘lgan davrga.

Shuningdek, agar advokatning qonunchilikda uning advokatlik faoliyati bilan bir oydan ortiq shug`ullanishdan ozod qilinishiga belgilangan boshqa asoslar mavjud bo`lsa, advokatning arizasi asosida bunday ozod qilinish davriga to`xtatib turilishi mumkin hamda hamda ushbu to‘xtatib turish ham hududiy malaka komissiyalaring qaroriga asosan amalga oshiriladi shuningdek advokat maqomi o‘z arizasiga ko‘ra to‘xtatib turilganda shaxs yuridik maslahatchi sifatida ishlashi mumkin. Bunda advokat maqomini to`xtatib turish turish haqidagi qaror qabul qilingan kundan e’tiboran ushbu maqom to`xtatiladi.

Advokat maqomini to`xtatib turishning tartibi Adliya vazirining 2009-yil 14-martdagi “O`zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to`g`risidagi nizomni tasdiqlash to`g`risidagi Nizomni tasdiqlash to`g`risida”gi 1921-sonli buyrug`i (keyingi o`rinlarda Nizom deb yuritiladi) bilan belgilangan. Advokat maqomini to`xtatib turish uchun yuqorida keltirilgan asoslar mavjud bo`lganda advokat maqomini to`xtatib turilishi haqida fikr yuritdik. Endi esa uning tartibi haqida so`z yuritamiz. Advokat qaysi ma’muriy-hududiy birlikdagi malaka komissiyasidan advokatlik guvohnomasini olgan bo`lsa, o`sha malaka komissiya advokat maqomini to`xtatib turish to`g`risida qaror qabul qilishi bilan amalga oshiriladi. Adliya organi qaror chiqarilgandan keyin uch kunlik muddat ichida malaka komissiyasi orqali maqomi to`xtatib turilgan advokatning guvohnomasini olib qo`yadi va Advokatlar palatasining tegishli hududiy boshqarmasiga bu haqida xabar beradi. Agar advokat

bedarak yo`qolgan bo`lsa, advokatlik guvohnomasini olib qo`yish qoidasini istisno etadi. Chunki, bedarak yo`qolgan shaxsdan mazkur guvohnomani olishning imkoni bo`lmaydi. Advokat maqomi to`xtatilgandan so`ng, advokatning

Advokatlar palatasiga a'zoligi ham to`xtatib turiladi. Bunda mazkur advokatga nisbatan qonunda nazarda tutilgan kafolatlarning ham amal qilishi to`xtatiladi. Quyidagi holatlar bundan mustasno hisoblanadi:

a) "Advokatura to`g`risida"gi qonunning 10-moddasi uchinchi qismi "Advokatning ish yuzasidan huquqiy nuqtai nazari xususida surishtiruv organi, tergovchi, prokuror taqdimnoma kiritishi, shuningdek sud xususiy ajrim chiqarishi mumkin emas"ligi va to`rtinchi qismi "Advokat qonunga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarga yuridik yordam ko‘rsatayotganligi munosabati bilan uni jinoiy, moddiy va boshqa javobgarlikka tortish yoki bunday javobgarlikni qo‘llash bilan qo‘rqitish mumkin emas"ligi;

b) "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to`g`risida" qonunning 6-moddasi to`rtinchi qismi

"Qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasi advokatga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori, viloyat prokurorlari, Toshkent shahar prokurori va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning iltimosnomasiga ko‘ra jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudi tomonidan qo‘llanilishi mumkin"ligi va beshinchi qismida nazarda tutilgan "Advokatning ish bo‘yicha huquqiy nuqtai nazariga nisbatan surishtiruv organi, tergovchi, prokuror taqdimnoma kiritishi, shuningdek sud xususiy ajrim chiqarishi mumkin emas"ligi kabi holatlar.[6]

Advokat maqomini tiklash malaka komissiyasi qarori bilan advokat maqomini to‘xtatib turish uchun asos bo‘lgan hollar tugatilganidan keyin amalga oshiriladi.

Advokat maqomi to‘xtatib turilgan shaxs mazkur Nizomning 36^1bandi o`n beshinchi xatboshisida ko‘rsatilgan muddat o‘tishiga kamida o‘n kun qolganida tegishli malaka komissiyasiga advokat maqomini tiklash to‘g‘risidagi ariza bilan murojaat qiladi. Arizaga

advokat maqomini to‘xtatib turish uchun asos bo‘lgan hollar tugatilganligini tasdiqlovchi tegishli hujjatlar ilova qilinadi.

Malaka komissiyasi ko‘rsatilgan muddatda arizani ko‘rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi. Malaka komissiyasining advokat maqomini tiklash haqidagi qarori u qabul qilingan kunning ertasidan kechiktirmasdan adliya organiga yuboriladi.

Advokat maqomini to`xtatib turish bo`yicha xalqaro amaliyot. Advokat maqomini to`xtatib turishda xorijiy davlatlarning qonunchiligini, ularda qanday qoidalar belgilanganligi va milliy qonunchiligimzdagi talablar bilan qiyosiy tahlilini amalga oshiramiz.

Rossiya Federatsiyasida ushbu sohani tartibga soluvchi “Rossiya Federatsiyasida advokatlik faoliyati va advokatura to‘g‘risida”gi qonuni bilan tartibga solinib, advokatlik maqomini to‘xtatib turish 3-bobning (advokatlik maqomi) 16-moddasida advokatlik maqomini to‘xtatib turishning 5 ta asoslari belgilab o‘tilgan. Keltirilgan asoslar milliy qonunchiligimiz bilan bir xil.[7] Farqli jihatlar muddatlar va advokat maqomini to`xtatib turish tartibida namoyon bo`ladi. Masalan, shunday belgilangan asoslar bor, shu asoslar bo‘yicha to‘xtatib qo‘yilgan advokatning maqomi advokatning shaxsiy arizasiga asosan kengash qarori bilan advokat maqomini to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qaror mazkur kengash tomonidan qabul qilingan kundan boshlab kamida bir yildan kechiktirmay va o‘n yildan kechiktirmay qayta tiklanadi. Advokatlar kollegiyasi kengashining advokat maqomining amal qilishini to‘xtatib turish yoki advokat maqomini yangilashni rad etish to‘g‘risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin. Bizning qonunchiligimzda esa bunday imkoniyatlar keltirilmagan.

Gruziyada advokatlik faoliyati Gruziya Respublikasining 2004-yil 29 sentyabrdagi “Advokatura faoliyati to‘g‘risida”gi 970sonli qonuni bilan tartibga solinadi. Mazkur qonunning 21^2-moddasi “Advokatlik kollegiyasida a'zolikni to‘xtatib turish” deb nomlanadi va unda advokatlik maqomini to‘xtatib turishning 3 ta asosi ko‘rsatilgan. Bular:

[6] O‘zbekiston respublikasi advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida.https://lex.uz/docs/-1458647#-4164853

[7] Федеральный закон «Об адвокатской деятельности и адвокатуре в Российской Федерации»consultant.ru/document/cons_doc_LAW_36945/

1) Advokatning arizasi;

2) Mazkur qonunning 34-moddasi birinchi bandi “b” kichik bandida belgilangan “6 oydan 3 yilgacha bo'lgan muddatga advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilish”

3) Mazkur qonunning 10-moddasi uchinchi bandiga binoan “Advokat bir vaqtning o'zida davlat muassasasida "manfaatlar to'qnashuvi" ga olib keladigan lavozimda bo`lishi mumkin emas va "Korrupsiya to'g'risida"gi Gruziya qonunining 2moddasida belgilangan mansabdor shaxs yoki boshqa shaxs, Gruziya qonunchiligiga ko'ra, advokatlik faoliyati bilan shug'ullanishi taqiqlangan”.

4) **Belarus Respublikasida** advokatlik faoliyatini Belarus Respublikasining 2011-yil 30-dekabrdagi “Advokatura va advokatlik faoliyati to‘g‘rsida”gi 334-3 sonli qonuni bilan tartibga solinadi.[8] Ushbu qonun 8 ta bob va 55 ta moddadan iborat. Mazkur qonunning 12-moddasi “Advokatlik faoliyatini to‘xtatib turish” deb nomlanadi va advokatlik maqomini to‘xtatib turishning 5 ta asosi belgilab o‘tilgan. Quyidagi hollarda advokatlik faoliyati tegishli hududiy advokatlar kollegiyasi kengashining qarori bilan to‘xtatiladi:

- davlat organiga yoki boshqa tashkilotga doimiy asosda ishlash muddatiga advokat saylash;
- advokatni harbiy xizmatga chaqirish;

- advokatning uch yoshga to'lmagan bolaga g'amxo'rlik ko'rsatishi;
- advokatni muqobil xizmatga yuborish;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish.

Mazkur qoidalarning milliy qonunchiligimizdagi qoidalardan farqi shundaki, muqobil xizmatga yuborish bizda nazarda tutilmaganligida hisoblanadi.

Qozog‘iston Respublikasida advokatlik faoliyati Qozog‘iston Respublikasining 2021-yil 1-iyuldagi “Advokatlik faoliyati va yuridik xizmat to‘g‘risida”gi 176-sonli qonuni bilan tartibga solinadi. Mazkur qonun 4 ta bo‘lim, 7 ta bob va 98 ta moddan iborat. Ushbu qonun 3bo‘lim 3-bobining 43-moddasi

[8] ЗАКОН РЕСПУБЛИКИ БЕЛАРУСЬ

30 декабря 2011 г. № 334-З etalonline.by/document/?regnum=H11100334

“Advokatlik litsenziyasini to‘xtatib turish” deb nomlanadi va mazkur moddada advokatlik maqomini to‘xtatib turishning 4 ta asosi bayon etilgan:

- harbiy xizmatda bo`lsa;
- o'z faoliyatini doimiy yoki o'rindoshlik asosida amalga oshiradigan, byudjet mablag'lari hisobidan to'lanadigan Qozog'iston Respublikasi Parlamenti deputatining, mas'ulat deputatining vakolatlarini amalga oshirish;
- advokat davlat xizmatida bo`lsa;
- advokatning o`z arizasiga asosan.[9]

Ushbu davlatda mazkur faoliyat uchun belgilangan qoidalarning bizning

qonunchiligimizdan farqi shundaki, advokatning davlat xizmatida bo`lishi advokat litsenziyasining to`xtatib turiishiga olib kelishi belgilangan.

Advokat maqomini to`xtatib turish, qayta tiklash asoslari va tartibini takomillashtirish istiqbollari.

Yuqoridagi qilingan tahlillardan kelib chiqib, ushbu amaliyotdagi ba’zi muammolarga takliflar vujudga keldi.

O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi qonuning 13^1-moddasi birinchi qismining 2-bandi quyidagicha:

ta'lim muassasalariga, shu jumladan kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kurslariga o‘qishga kirganda — o‘qish davriga, biroq ko‘pi bilan uch yilga deya bayon etilgan. O`zbekiston Respublikasi “Ta’lim to`g`risida”gi qonuni 11-moddasining to`rtinchi qismiga muvofiq “Bakalavriat oliy ta’lim yo‘nalishlaridan biri bo‘yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko‘nikmalar beradigan, o‘qish davomiyligi kamida uch yil bo‘lgan tayanch oliy ta’limdir.” Demak, ushbu bakalavriat oliy ta’lim yo`nalishlari odatda to`rt yil hisoblanadi (ayrimlaridan tashqari). Agar advokat bakalavriat yo`nalishida o`qimoqchi bo`lsa, shunda OTM da o`qish muddati to`rt yil bo`lsa, u uch yil muddatga uning advokat maqomi to`xtatib turiladi. Qolgan bir yili uchun qanday tartib belgilanganligi hech qaysi normativ-huquqiy hujjatda keltirilmagan. Shuning uchun ushbu moddaning mazkur qismi quyidagicha takomillashtirilishi kerak: **ta'lim muassasalariga, shu jumladan kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kurslariga o‘qishga kirganda — o‘qish davriga, biroq ko‘pi bilan to`rt yilga. Agar talaba sirtqi ta’lim shakli besh yil bo`lgan OTMga kirgan bo`lsa, to`rt yillik muddatini o`qib bo`lgandan so`ng, oxirgi yilini advokat maqomi tiklangan holda olib borishi mumkin.**

Shuningdek, “Advokatura to‘g‘risida”gi qonuning 13^1-moddasi birinchi qismi to`rtinchi bandiga ko`ra “Advokat yoki uning yaqin qarindoshi og‘ir kasalligi sababli vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik tufayli tibbiy xulosa taqdim etilganda —

[9] Закон Республики Казахстан от 5 июля 2018 года № 176-VI «Об адвокатской деятельности и юридической. prg.kz/document/?doc_id=33024087

sog‘ayguncha, biroq ko‘pi bilan bir yilga.” deb belgilangan. Yaqin qarindosh atamasi ham O`zbekiston Respublikasi Oila kodeksida ham Jinoyat kodeksida keltirilgan. Ya’ni ushbu kodekslarda yaqin qarindoshlik tushunchasi turli xilda bayon etilgan. Oila kodeksiga binoan to`g`ri shajara (bobo, ota,ona,farzand) yon shajaraga nisbatan yaqinroq hisoblanishi aytilgan

(57-modda). Jinoyat kodeksi VII bo`lim bo`yicha “Yaqin qarindoshlar

- qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo‘lgan shaxslar, ya’ni otaona, tug‘ishgan va o‘gay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek er-xotinning ota-onasi, tug‘ishgan va o‘gay aka-uka va opa-singillari” nazarda tutilgan. Ushbu holatni aniqlashtirish uchun

“Advokatura to`g`risida”gi qonun 13^1-moddasi birinchi qismi to`rtinchi bandi quyidagicha takomillashtirilishi kerak:

advokat yoki uning Oila kodeksi 57-moddasida belgilangan to`g`ri shajara bo`yicha yaqin qarindoshi og‘ir kasalligi sababli vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik tufayli tibbiy xulosa taqdim etilganda — sog‘ayguncha, biroq ko‘pi bilan bir yilga.

Bilamizki, advokat maqomi to`xtatib turilgan paytda, u advokatlik faoliyati bilan shug`ullana olmaydi. Lekin uning malakasi yetarli bo`ladi va yuqorida ko`rsatilgan asoslar mavjud bo`lganligi sababli maqomdan foydalana olmaydi. Unga nisbatan bunday cheklovlarning kiritilishi advokatning malaka darajasi pasayib ketishiga sababchi bo`ladi. U yuridik xizmat ko`rsatish faoliyati bilan bemalol shug`ullanishi va bu faoliyati qonun

himoyasi ostida bo`lishi kerak. Shuning uchun Qonunning 13^1-moddasi uchinchi qismi sifatida quyidagi matn kiritilishi kerak deb hisoblaymiz:

Advokat maqomi mazkur moddaning birinchi qismi ikkinchi, uchinchi, to`rtinchi bandlarida nazarda tutilgan asoslar bo`yicha to`xtatib turilgan davrda, uning yuridik xizmat ko`rsatish faoliyati cheklanmaydi va bu qonun hioyasida bo`ladi. Bundan uning sud, tergov yoki surishtiruvlarda himoyachi sifatida ishtirok etishi mustasno.

**Xulosa o`rnida** shuni aytishimiz mumkinki, O`zbekiston Respublikasida advokatura va advokatlik faoliyatini tubdan takomillashtirish bo`yicha salmoqli ishlar amalga oshirilib, ushbu soha vakillarining fuqarolarga malakali yuridik yordam ko`rsatishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish ishlari jadal kechmoqda.

Shuning bilan birga, ushbu sohani tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarida belgilangan advokat maqomini to`xtatib turish, qayta tiklash asoslari va tartibi bir nechta xorijiy davlatlar amaliyoti bilan qiyosiy tahlili asosida har tomonlama o`rganib chiqildi. Advokat maqomini to`xtatib turish, qayta tiklash asoslari va tartibini tahlil qilish va takomillashtirish yuzasidan ilmiy-nazariy hamda amaliy izlanishlar natijasida berilgan mavzu bo`yicha ko`zlangan maqsadga erishdik deb hisoblaymiz. Buning uchun quyidagilar sabab bo`ldi:

Birinchidan, ushbu amaliyotni tartibga soluvchi milliy qonunchilik tahlil qilindi;

Ikkinchidan, xorijiy davlatlar amaliyoti bilan qiyosiy tahlil amalga oshirildi;

Uchinchidan, qiyosiy tahlil, va amaliyotdagi muammolar asosida mavjud muammolar o`rganilib, ularga yechim sifatida takliflar berildi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son;

2. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son; 21.03.2025y., 06/25/51/0261-son; 26.03.2025-y., 06/25/56/0274-son);

3. “Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.05.2018 yildagi PF-5441-son. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.05.2018-y., 06/18/5441/1210-son);

4. O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrdagi “Advokatura to‘g’risida”gi 349-I-son Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 03.02.2022-y., 03/22/749/0101-son; 04.08.2022-y., 03/22/786/0705son; 10.08.2023-y., 03/23/862/0578-son; 07.02.2024-y., 03/24/905/0106-son; 22.02.2024-y., 03/24/911/0142-son; 28.02.2024y., 03/24/915/0160-son;

5. O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 25-dekabrdagi “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi 721-I-son Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-y.,1-son, 12-modda, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008-y., 52-son, 514-modda; 2016-y., 39-son, 457-modda; 2017-y., 37-son, 978modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 01.12.2020-y., 03/20/651/1577-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 04.08.2022-y., 03/22/786/0705son;

6. O‘zbekiston respublikasi advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining buyrug‘i, 14.03.2009 yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 1921. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009-y., 12-son,

134-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.01.2018-y., 10/18/1921-1/0519-son, 25.09.2018-y., 10/18/1921-2/1956-son,

09.01.2019-y., 10/19/1921-3/2447-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 10/21/3338/1117-son; 18.09.2023-y., 10/23/1921-4/0709-son);

7. “O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldagi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘RQ–682-son Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi https://www.norma.uz/oz;

8. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O’zbekiston, 2023.

9. O’zbekiston Respublikasining “Advokatura to’g’risida”gi Qonuni, 1996 27-dekabr, 349-I-son. – Lex.uz.

10. O’zbekiston Respublikasining “Davlat hisobidan yuridik yordam ko’rsatish to’g’risida”gi Qonuni, 2023-yil 16-iyun, O’RQ-848-son. – Lex.uz.

11. O’zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – 1994-yil 22 sentabr, 2013-XII-son.

12. O’zbekiston Respublikasining “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to’g’risida”gi Qonuni, 1998-yil 25-dekabr, 721-I-son. Lex.uz.

13. Matmurotov A.R. O’zbekiston Respublikasida advokat maqomini olish tartibini takomillashtirish imkoniyatlari. – Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2024. – 145 b.